

MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA INKLYUZIV TA'LIM
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Sabohat Hamza Qizi Umbarova

Puchon universitetining Toshkent filiali

“Ta’lim muassasalarini boshqarish” yo`nalishi

I kurs magistri

sabohathamzayevna5@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola yurtimizda bir necha yillar davomida o`qishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan imkoniyati cheklanganlar uchun joriy etilgan yangi ta’lim tizimi takomillashuvi, va bu ta’lim tizimi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qay darajada tashkil etilganligi va bu tizimni yanada rivojlantirish maqsadida yangi farmon va qarorlar joriy etish kabi vazifalar haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: ta’lim, tarbiya, psixologiya, inklyuziv, rivojlanish, sustlashish, taqlid, takomillashuv, harakat.

FORM AN INCLUSIVE EDUCATION SYSTEM
IN PRESCHOOL EDUCATION

UMBAROVA SABOKHAT KHAMZA kizi

Bucheon University in Tashkent

Master of "Management of Educational Institutions".

sabohathamzayevna5@gmail.com

ANNOTATION

This article is about the improvement of the new educational system introduced in our country for those with disabilities who have been having difficulties in reading for several years, and to what extent this educational system is organized in preschool educational organizations, and new decrees and decisions in order to further develop this system. it is about tasks such as implementation.

Key words: education, training, psychology, inclusive, development, weakening, imitation, improvement, action.

KIRISH

Yurtimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida katta e’tabor berilmoqda. Albatta, mamlakat rivoji uning ta’lim shaklining qay darajada mustahkamligiga va kelajak avlodning har tomonlama yetuk bo`lib voyaga yetishiga, ta’lim va tarbiyaning uyg`unligi, ularning samarali ta’lim usullari va

tarbiya shakllarining tashkillashtirilishiga bo'liq bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ta'limning asosiy bazasi bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida qay darajada ta'lim olishayotganliklariga va muassasaning yetarlicha jihozlanishiga, pedagoglarning bilim darajasiga bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim muassasalariga jalb etish, maktabgacha ta'lim muassasalarining zamonaviy o'quv-metodik materiallar va kerakli adabiyotlar bilan ta'minlash, sohaga malakali kadrlar va boshqaruv kadrlarini jalb etish, nafaqat yurtimizda, balki jahon miqyosida maktabgacha ta'lim sohasidagi o'zgarishlar bilan tanishish va tajriba almashish kabi masalalarni hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha talim sohasidagi tizimni yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli ta'lim olishini, ular orasidagi tabaqalanish tushunchasini bartaraf etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu qaror maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi davr boshlanishiga sababchi bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Mamlakatimizda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston respublikasi prezidenti qarori ishlab chiqildi. Bu orqali bunday nuqsoni mavjud bo'lgan va ta'lim olishda turli qiyinchiliklarga duch keladigan bolalar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uchun turli qaror va farmonlar ko'rib chiqildi va xalqqa taqdim etildi.

2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim tizimining sifat darajalarini yanada yaxshilash maqsadi ko'zda tutildi.

MUHAKAMA

2020-2025 yillarda Xalq ta'lim tizimini rivojlanishda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ham tashkillashtirildi va bu 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. bu konsepsiya orqali alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan va aniq bir nuqsonli bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning aniq bir maqsadli tizim ko'rsatkichlari belgiland va tasdiqlandi.

Bu konsepsiya orqali erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va aniq bir davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlar mamlakatimizda 2022-yildan boshlab tegishli chora-tadbirlar va rejalar tuzilib, amalga oshirilib borilmoqda.

Ushbu konsepsiya ikki bosqichdan iborat bo'lib:

- 2020-2022 yillar davomida:

Inklyuziv ta'lim sohasidagi normativ baza takomillashtirildi;

Inklyuziv ta'lim tizimidagi malakali pedagog kadrlar soni ortdi, qayta tayyorlash, malaka oshirish kurslari tashkil etildi;

Inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan muassasalarda kerakli moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, qayta rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi, maxsus moslamalar ya'ni ko'tarish qurilmalari, panduslar, tutqichlar va zaruriy adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, pedagoglar uchun ham yetarlicha adabiyotlar bilan ta'minlandi;

Inklyuziv ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va bu soha asosida innovatsion loyihalar joriy etildi;

Inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim oladigan bolalarning bilim olish huquqi, ta'lim olishlari uchun zarur muhit yaratildi;

Alohida ta'lim olishga ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga kirishlariga yordam berildi;

Inklyuziv ta'lim tizimida qanday muammolar mavjudligini aniqlash uchun tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarda faoliyatlar joriy etildi;

•2023-2025 yillar davomida:

Inklyuziv ta'lim tizimida bosqichma-bosqich boshqa umumiy ta'lim muassasalarda ham joriy etish;

Inklyuziv ta'lim tizimida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning huquqlarini himoya qilish, ularga zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish;

O'quvchilar uchun tashkillashtiriladigan muassasalarning geografik o'rni va kerakli jihozlar bilan ta'minlanishi kabi bir nechta bajarilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar belgilangan.

Lekin bu yo'lda ba'zi muammolar ham mavjud. Masalan, aholining inklyuziv ta'lim to'g'risida to'g'ri ma'lumotga ega emasligi natijasida, muassasa va muassasada ta'lim olayogan ba'zi o'quvchilarning ota-onalar o'rtasida turli konfliktlar yuzaga kelishi mumkin. Bu borada, ota-onalar sog'lom farzandlarining nuqsonli bolalar bilan birga ta'lim olishlarini xohlashmaydi, ularning farzandiga ta'sir ko'rsatishidan tashvishlanadilar.

NATIJA

Inklyuziv ta'lim vazifasi alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim tamoyillari imkoniyati cheklangan bolalarning ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari orasida ta'lim olishlariga zarur shart-sharoitlar yaratib berildi. Bu orqali bolalar o'zlarini jamiyatdagi erkin o'rinlariga ega bo'lishlari va o'zlarining yashirin qobiliyatlari bilan yuksak marralarni zabt etishlari uchun maxsus yordam bilan ta'minlanishdi. Qolaversa, ta'lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelgan va

o`zlashtirishlari qiyin bo`lgan bolalarga ham maxsus pedagoglar jalb etildi. Bu esa, hech bir o`quvchi ta`lim olish davomida hech qanday qiyinliklarga uchramasligi va ularning bu qiyinchiliklarni yengib o`tishda ularga “yordam beruvchi qo`llar” mavjud ekaligini bildiradi. Harakatlanishda va ko`rish qobiliyati past bo`lgan bolalar uchun maxsus harakatlanish vostalari, o`qishlari uchun maxsus adabiyot va kitoblar tadbiriq etildi. Yuqorida ko`rilgan muammo yuzasidan esa, inklyuziv ta`lim joriy etilayotgan muassasada ma`lum darajada so`rovnomalar o`tkaziladi, so`rovnomalar natijasi bo`yicha, ota-onalar va o`quvchilarga ushbu joriy etilishi kerak bo`lgan ta`lim to`g`risida zruriy ma`lumotlar taqdim etiladi.

XULOSA

Imkoniyati cheklangan bolalar ilk maktabgacha ta`lim yoshlarianoq davlatimiz tomonida ro`yhatga olinib, ularning ehtiyojlaridan kelib chiqib yordam beriladi. Zero, ularning keyingi hayoti mana ilk yoshlardan oq shakllana boshlashini e`tiborga olishimiz zarur. Mazkur maqola yordamida biz ba`zi savollarga yechim topdik:

Inklyuziv ta`lim imkoniyati cheklangan bolalarga qanday yorda beradi?

- Mustaqil harakat qilish instinkti rivojlanadi;
- Jamoa bilan ishlash orqali jamiyatga kirib kelishi va o`z o`rnini topishi osonlashadi;
- O`z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o`zini qayta kashf etadi;
- O`zining qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi;
- Hayotga nisbatan fikrlashi o`zgaradi va o`zini kerakli deb hisoblaydi;
- O`qishga va izlanishga nisbatan qiziqishi ortadi;
- O`ziga, atrofida gilariga va hayotga ishonchi ortadi.

Inklyuziv ta`lim sog`lom bolalar hayotiga qanday ta`sir ko`rsatadi?

- Sog`lom bolalar tengdoshlaridagi nuqsonlarni ko`rib shukr qilishni;
- Ularga yordam berish va g`amxo`rlik qilishni;
- Ularni qo`llab-quvvatlashni;
- Atrofdagi insonlarga nisbatan ham yordam berishni;
- Ulardagi o`qishga nisbatan ishtiyoqdan o`zlariga ham motivatsiya olishi o`rganishadi.

Hozirda yurtimizda bu kabi muassasalar va qo`llab-quvvatlovchi turli tashkilotlar soni ko`paymoqda va takomillashmoqda. Bu esa shuni anglatadiki, mamlakatimiz har bir yosh avlodning kelib-chiqishi va imkoniyatidan qat`i nazar ta`lim olishda ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berishmoqda. Zero, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti ta`kidlaganidek, “barcha muammolarning yechimi- ta`limda. Ta`limning ustuni esa o`qituvchilar, muallimlardir”.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qarori **-4860 13.10.2020**
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori **PQ-4312 08.05.2019**
3. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta'lim texnologiyasi” o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil
4. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013
5. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
6. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.